



Mahliyo ABDURAIMOVA,
Andijon davlat chet tillari instituti
E-mail: maxliw0077@gmail.com

ADCHTI dotsenti, PhD D.Qozoqboyeva taqrizi asosida

A LINGUOCULTUROLOGICAL ANALYSIS OF GAS AND GAS PROCESSING INDUSTRY TERMINOLOGY IN ENGLISH AND UZBEK

Annotation

This article provides a comprehensive linguoculturological analysis of gas and gas processing industry terminology in English and Uzbek. Terminology is examined not merely as a technical vocabulary but as a reflection of the cultural cognition, historical context, and conceptual worldview inherent in each language. The study identifies semantic structures, cultural connotations, metaphorical foundations, and translational transformations of industry-specific terms. English terms frequently display metaphorical-technological constructions, while their Uzbek counterparts are often descriptive or derived via Russian borrowings. The article concludes that achieving terminological coherence and addressing intercultural semantic discrepancies are essential for effective technical translation and terminology standardization in the gas sector.

Key words: gas industry, linguoculturology, translation, technical terminology, metaphor, cultural connotation, conceptual difference, standardization.

ЛИНГВОКУЛЬТУРОЛОГИЧЕСКИЙ АНАЛИЗ ТЕРМИНОВ ГАЗОВОЙ И ГАЗОПЕРЕРАБАТЫВАЮЩЕЙ ПРОМЫШЛЕННОСТИ В АНГЛИЙСКОМ И УЗБЕКСКОМ ЯЗЫКАХ

Аннотация

В статье проводится комплексный лингвокультурологический анализ терминов, относящихся к газовой и газоперерабатывающей промышленности, в английском и узбекском языках. Термины рассматриваются не только как технические единицы, но и как отражение культурного мышления, исторического опыта и концептуального мировоззрения каждого языка. В Статье включает изучение семантической структуры, культурных коннотаций, метафорических основ и трансформаций при переводе терминов. Термины английского языка часто имеют метафорический и технологический характер, тогда как их узбекские эквиваленты чаще всего описательные и заимствованы из русского языка. В заключении подчеркивается необходимость учета культурных различий в переводе и разработки подходов к терминологической унификации в сфере технического перевода и стандартизации профессиональной лексики в газовой отрасли.

Ключевые слово: газовая промышленность, лингвокультурология, перевод, техническая терминология, метафора, культурная коннотация, концептуальные различия, стандартизация.

GAZ VA UNI QAYTA ISHLASH SANOATI TERMINLARINING INGLIZ VA O‘ZBEK TILLARIDA LINGVOKULTUROLOGIK TAHLILI

Annotatsiya

Mazkur maqolada ingliz va o‘zbek tillarida gaz va uni qayta ishlash sanoatiga oid terminlarning lingvokulturologik xususiyatlari chuqur tahlil qilinadi. Terminlar faqat texnik tushuncha sifatida emas, balki har bir tilning madaniy tafakkuri, tarixiy tajribasi va konseptual dunyoqarashining mahsuli sifatida ko‘rib chiqiladi. Maqolada terminlarning semantik asoslari, madaniy konnotatsiyalari, metaforik asoslari hamda tarjimadagi semantik transformatsiyalari aniqlanadi. Ingliz tilidagi atamalarining aksariyati texnologik metaforalar bilan boyitilgan bo‘lsa, o‘zbek tilidagi muqobillari ko‘proq deskriptiv, ba’zida esa rus tili orqali o‘zlashgan shaklda namoyon bo‘ladi. Maqola yakunida terminologik uyg‘unlikka erishish va tarjimada madaniy tafovutlarni hisobga olish zarurligi asoslanadi. Bu holat sanoat tilining standartlashtirilishi va texnik tarjima sohasida amaliy ahamiyatga ega yondashuvlarni ishlab chiqishga zamin yaratadi.

Kalit so‘zlar: gaz sanoati, lingvokulturologiya, tarjima, texnik terminologiya, metafora, madaniy konnotatsiya, konseptual tafovut, standartlashtirish.

Kirish. Gaz va uni qayta ishlash sanoati zamonaviy global iqtisodiyotning strategik tarmoqlaridan biri hisoblanadi. Energiya resurslariga bo‘lgan talabning ortishi, xalqaro transport va ekologik xavfsizlik masalalarining kun tartibiga chiqishi ushbu sohaning tilshunoslik nuqtai nazaridan ham dolzarbligini oshirmoqda. Texnik terminologiya nafaqat atamalarining leksik-semantik mazmunini, balki ular orqali aks etadigan konseptual tafakkur, madaniy kod va dunyoqarashni ham ifodalaydi. Shuning uchun terminlarni lingvistik nuqtai nazardan emas, balki lingvokulturologik yondashuv asosida tahlil qilish, ya’ni ularning til, tafakkur va madaniyat kontekstida o‘rganilishi zarur. Gaz sanoatidagi terminlar tizimi

lingvo kulturologik jihatdan sezilarli tafovutlarga ega bo‘lib, ingliz tilidagi terminlar ko‘pincha metaforik, texnologik, dinamik xarakter kasb etsa, o‘zbek tilida ular deskriptiv, konversiyalangan, ba’zan rus tili orqali o‘zlashgan ko‘rinishda namoyon bo‘ladi. Shu jihatdan gaz sanoatiga oid terminlarning ingliz va o‘zbek tillaridagi shakllanish mexanizmlarini, ularning konseptual asoslarini, madaniy semantik yuklamalarini va tarjima jarayonidagi transformatsiyalarini o‘rganish dolzarb masala hisoblanadi.

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili. Gaz sanoati terminologiyasi bugungi kunda nafaqat texnik, balki lingvistik va madaniy nuqtai nazardan ham o‘rganilayotgan dolzarb

sohalardan biridir. Ushbu sohaga oid atamalarni tarjima qilish, ularning semantik va konseptual xususiyatlarini aniqlash bo'yicha bir qator mahalliy va xorijiy tadqiqotlar olib borilgan. Shu jumladan, Xojaniyazov S.A "Терминологические проблемы технического перевода" deb nomlangan monografiyasida texnik tarjima sohasidagi asosiy muammolar, xususan, energetika va gaz sanoati terminlarining ko'p ma'noligi, kontekstual farqlanishi haqida fikr yuritiladi. Muallif terminlar tarjimasida kalka, deskriptiv, ekvivalentli yondashuvlarni farqlaydi. Bu ish maqolamizda tarjima usullarini tanlashda nazariy asos sifatida foydalidir.

Shuningdek, M. Baker "In Other Words: A Coursebook on Translation" deb nomlangan ilmiy izlanishida terminlar tarjimasini konseptual darajada idrok etish zarurligini ta'kidlaydi. U semantik maydonlar, madaniy konnotatsiyalar, va pragmatik funksiyalar orqali tarjimaning to'liq adekvat bo'lishiga urg'u beradi. Gaz sanoati terminlarining lingvokulturologik farqlarini o'rganishda bu yondashuv katta ahamiyatga ega. Bundan tashqari P.Newmark "A Textbook of Translation" deb nomlangan maqola muallifi Newmark tomonidan taklif etilgan tarjima uslublari tasnifi badiiy, semantik, kommunikativ va deskriptiv gaz sanoatidagi metaforik terminlar tarjimasini anglashda juda foydali. Ayniqsa, "gas sweetening", "blowout preventer", "knockout drum" kabi metaforalarning o'zbek tilida qanday deskriptiv shakllarga aylanishi Newmark uslubi bilan izohlanadi.

"Tarjimada kognitiv yondashuv asoslari" muallifi Kabulova D tarjimada kognitiv modellar, konseptlar va psixolingvistik mexanizmlar asosida yondashishni taklif qiladi. Ushbu yondashuv orqali gaz sanoatidagi atamalarning kultural asoslari, ya'ni ularning qanday metaforik asoga, qanday tasavvur tizimiga tayanganini tahlil qilish imkoniyati paydo bo'ladi. Z.Хусанова "Газ саноати терминларининг лексик-семантик хусусиятлари" maqolasida o'zbek tilidagi gaz sanoati atamaları leksik tizim, ruscha o'zlashmalar, terminlarning shakllanishi asosida tahlil qilgan. Biroq maqolada lingvokulturologik yondashuv to'liq ochilmagan, shuning uchun bizning tadqiqot ushbu kamchilikni to'ldirishga qaratilgan. Shuningdek, I.AI-Faruqi "Cultural Dimensions in Translation" deb nomlangan maqolasida tarjima jarayonini lingvistik emas, balki madaniy aloqalar nuqtai nazaridan baholaydi. Ayniqsa texnik atamalarning metaforik mazmuni va madaniy kodlarini to'g'ri tarjima qilish uchun konnotatsiyalarni bilimgv muhitda qayta tahlil qilish zarurligini ta'kidlaydi.

Inglizcha termin	O'zbekcha tarjima	Tarjima strategiyasi
Blowout preventer	Portlashni oldini oluvchi qurilma	Deskriptiv + izohli
Flash gas	Tez ajraluvchi gaz	Kalka
Knockout drum	Ajratgich baraban	Qisman kalka, qisman deskriptiv
Gas sweetening	Gazni tozalash	Semantik soddalashtirish

Ingliz tilida sanoat atamaları ko'pincha metafora, qisqartma, analogiya va ko'p konnotatsiyali birliklar asosida yaratiladi.

O'zbek tilida esa aksariyat terminlar rus tilidan o'zlashgan yoki to'g'ridan-to'g'ri deskriptiv tarjima qilingan, bu esa madaniy ma'no qatlamlarining yo'qolishiga olib keladi.

Tarjima strategiyalari o'zbek tilida ko'proq semantik, izohli, ba'zida kalka shaklida namoyon bo'lib, terminlarni standartlashtirish zaruratini ko'rsatadi.

Frazeologik birliklar va lingvokognitiv modellarning yetarli integratsiyalanmaganligi gaz sanoati tilida madaniy betaraflik (cultural flattening) muammosini yuzaga chiqaradi.

Xulosa. Gaz va uni qayta ishlash sanoati terminlari ingliz va o'zbek tillarida shakllanishi, semantik maydoni va madaniy asoslari jihatidan muhim lingvokulturologik

Tadqiqot metodologiyasi. Tadqiqot mavzusini yoritishda lingvokulturologik tahlil, kognitiv lingvistika, qiyosiy tarjimaviy tahlil, shuningdek, korpus usullardan foydalaniladi.

Tahlil va natijalar. Gaz sanoatiga oid atamalarning ingliz va o'zbek tillaridagi shakllanishi, qo'llanishi va madaniy mazmuni qiyosiy jihatdan ko'rib chiqilganda, ularning orqasida turgan konseptual asoslar sezilarli farqlarga ega ekani aniqlanadi. Ingliz tilidagi terminlar texnologik taraqqiyotga mos tarzda shakllangan bo'lib, ularda metaforik nomlash, madaniy kodlash, kompaktiv va mantiqiy izchillik yaqqol namoyon bo'ladi. O'zbek tilidagi muqobillar esa ko'pincha deskriptiv xarakterga ega bo'lib, ba'zida rus tilidan bevosita o'zlashgan, ba'zida esa mahalliyashtirilgan shaklda ishlatiladi.

Masalan: Sweetening unit - ingliz tilida "gazni shirinlashtiruvchi qurilma" degan metaforik ifodaga ega. Bu atama texnik jarayonni yumshoq, xavfsiz, ifordan tozalovchi holatga o'tkazishni anglatadi. O'zbek tilida esa bu faqat "gazni tozalash qurilmasi" deb tarjima qilinadi. Bunda madaniy-estetik komponent yo'qoladi.

Pigging system - texnik "tozalash moslamasi" bo'lsa-da, ingliz tilida "pig" (ya'ni "cho'chqa") obrazi orqali metaforik tasvir yaratilgan. O'zbek tilida bu vizual obraz yo'qolgan, atama semantik dekodlangan va deskriptiv tarzda berilgan: quvur tozalash moslamasi. Bu farqlar mental xaritalar, asosiy konseptlar va kognitiv model darajasida qarama-qarshiliklar mavjudligini ko'rsatadi.

Gaz va energiya bilan bog'liq konseptlar nafaqat texnik terminlarda, balki frazeologik birliklar va idomlarda ham tilga olinadi. Ingliz tilida bu kabi birliklar:

Blow off steam – bosimni chiqarib tashlash → "Jahlini chiqarish";

Full of hot air – havo bilan to'la → "Bo'sh gap";

Gaslight someone – manipulyatsiya qilish → "Aqlini chalg'itmoq";

Bularning har biri gaz, bosim va portlash bilan bog'liq texnologik obrazlar asosida shakllangan. O'zbek tilida esa:

"Portlab ketdi",

"Yonib ketdi",

"Olovli yurak",

kabi ifodalar mavjud bo'lsa-da, ularning texnik va terminologik til bilan integratsiyasi zaif. Bu esa sanoat terminologiyasida konnotativ qashshoqlikni yuzaga keltiradi.

Tarjimada asosan quyidagi strategiyalar kuzatildi:

Tavsif
Texnik metafora semantik shaklga aylantirilgan
Inglizcha shakl saqlangan, lekin tushunchaviy izoh talab qiladi
Atamaning metaforik komponenti yo'qolgan
Madaniy estetik unsur tarjimada aks etmagan

tafovutlarga ega. Tadqiqot davomida quyidagi asosiy natijalarga erishildi:

1) Til va madaniyat uyg'unligi: texnik terminlar faqat ob'ektiv texnologik tushunchalarni emas, balki har bir xalqning mentaliteti, dunyoqarashi va texnik tafakkur tarixini ham aks ettiradi. Ingliz tilidagi ko'plab atamalar (masalan, sweetening unit, gas flare, blowout preventer) metaforik va madaniy yuklamalarga ega bo'lsa, o'zbek tilidagi muqobillari ko'proq deskriptiv, izohli, va ba'zida rus tilidan kalka shaklida olingan.

2) Metafora va konseptual tafovutlar: ingliz tilida gaz sanoatiga oid atamalar ko'pincha metaforik asosda shakllanadi va bu ularning semantik ifodaviyligini oshiradi. O'zbek tilida esa texnik metaforalarning tarjima jarayonida yo'qolishi yoki oddiylashtirilgan ekvivalent bilan almashtirilishi ko'zga tashlandi.

3) Tarjima strategiyalaridagi nomuvofiqlik: tarjima jarayonida ekvivalentlik, semantik to'g'rilik va madaniy adekvatlik har doim ham ta'minlanmagan. Bu holat, ayniqsa, tavsiflovchi tarjima (deskriptiv), semantik soddalashtirish va qisman kalkalash uslublari qo'llangan hollarda seziladi.

4) Terminologik betaraflik va madaniy siljish: frazeologik birliklar, metaforik nomlash vositalari va mental

obrazlarning tarjimada yo'qolishi madaniy semantik sathda kommunikativ uzilish keltirib chiqarishi mumkin. Bu esa texnik hujjatlarda noaniqlik, ilmiy uslubda esa lingvokulturologik silliqlik (flattening) paydo bo'lishiga sabab bo'ladi.

ADABIYOTLAR

1. Хожаниязов С. А. Терминологические проблемы технического перевода. Ташкент: Фан. 2020.
2. Хусанова З. А. Газ саноати терминларининг лексик-семантик хусусиятлари. // Олий таълимда лингвистика муаммолари, №3, 2022. - Б. 85–89.
3. Baker M. In Other Words: A Coursebook on Translation. London: Routledge. 1992.
4. Newmark, P. (1988). A Textbook of Translation. London: Prentice Hall.
5. Кабдулова Д. К. Таржимада когнитив ёндашув асослари. // Самарқанд филология журнали, №2, 2019. - Б. 51–56.
6. Al-Faruqi I. R. Cultural Dimensions in Translation. // Translation Studies Annual, 3(1), 1988. – P. 27–39.
7. Gotti M. Specialized Discourse: Linguistic Features and Changing Conventions. Bern: Peter Lang. 2003.
8. Хамидова М. М. Техник терминларнинг ўзбек тилида таржимаси муаммолари. // Таржимашунослик илмий нашри, №1, 2021. - Б. 41–46.
9. Kussmaul P. Training the Translator. Amsterdam: John Benjamins. 1995.
10. Умаров Н. Х. Энергетика соҳаси терминологиясининг ўзбекча-инглизча мувофиқликлари. // ЎзМУ Хабарлари, Филология фанлари серияси, №1, 2018. – Б.102-106.